

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.3:6T2(575.1)

NASRITDINOVA GULCHEXRA ABDURASHITOVNA

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (AVTOMOBIL
SANOATI MISOLIDA)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor Bekmurodov Adxam Sharipovich**

Toshkent -2023

MUNDARIJA

	Kirish	3
I bob	SANOAT TARMOQLARIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	12
1.1.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy va uslubiy jihatlari	12
1.2.	Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy usul va modellari	23
1.3.	Avtomobil sanoati tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha xorijiy tajribalar ... Birinchi bob bo‘yicha xulosa	27 33
II bob	AVTOMOBIL SANOATIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH HOLATI VA SAMARADORLIGI TAHLILI	35
2.1.	O‘zbekiston avtomobil sanoatining rivojlanishi va investitsion faoliyati tahlili	35
2.2.	O‘zbekiston avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligi holati tahlili	50
2.3.	Avtomobil sanoati tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini baholash Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	64 75
III bob	AVTOMOBIL SANOATIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA‘MINLASH YO‘LLARI	77
3.1.	Avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini oshirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish	77
3.2.	Avtomobil sanoati raqobatbardoshligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida oshirish yo‘llari	91
3.3.	Avtomobil sanoatining innovatsion faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar asosida oshirish mexanizmlari	100
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	112
	XULOSA	115
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	118
	ILOVALAR	128

KIRISH(doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonining kuchayishi sanoat tarmoqlarida, ayniqsa avtomobil sanoati korxonalarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etish orqali global qiymat zanjirida faol harakatini ta'minlashga asosiy rivojlanish yo'nalishlari sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, jahonda 2021-yilda jami 80,1 mln.dona avtomobillar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning 71 foizi yengil avtomobillardir¹. 2020-yilga nisbatan avtomobil ishlab chiqarishda 3 foiz o'sish kuzatilgan. 2021-yilda avtomobil sanoatida jami 145,7 trln. AQSh dollari investitsiyalar yo'naltirilgan bo'lib, ularning qariyb 44 foizi TTXIlardir².

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda investitsion jarayonni kuchaytirish kabi muhim vazifalarni uyg'unlashtirish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida samarali investitsion siyosat ishlab chiqilmoqda. Avtomobil sanoatidagi mavjud investitsion salohiyat va imkoniyatni safarbar etishning ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, investitsion salohiyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga yuqori ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida qulay investitsion muhit yaratish, iqtisodiyotga yo'naltirilgan sarmoyani ko'paytirish, investitsion faoliyat jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Avtomobil sanoatida investitsiyaga bo'lgan talabning rag'batlantirilishi, investitsiya resurs bazasining kengayishi, qulay investitsion muhitning yaratilishi natijasida avtomobil tarmog'iga 2016-2021-yillarda qariyb 391,6 mlrd. so'mlik investitsiya jalb qilingan. Biroq, investitsiyalarni jalb etish borasida hali yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Shuningdek, jalb etilgan TTXIlardan nafaqat samarali foydalanish va ularni mahalliyashtirish, balki xorijiy investorlarni ham o'ziga jalb eta oladigan shart-sharoitlar yaratishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

¹ <http://www.oica.net/> — International Organization of Motor Vehicle Manufacturers

² https://stats.oecd.org/index.aspx?DatasetCode=FDI_FLOW_INDUSTRY